

QO‘LLANMAGA IZOH

«YAPON TILI VA YAPONIYA MADANIYATI» DASTURI NIKKENSEI 2026

Ushbu hujjat dasturga hujjatlarni tayyorlashda e’tibor qaratish kerak bo‘lgan ko‘rsatmalar va qo‘shimcha ma’lumotumotlar kiritilgan izoh hisoblanadi.

Dastur haqida to‘liq ma’lumot Ingliz va Yapon tilidagi ko‘llanmada (Application guidelines) ko‘rsatilgan, uni diqqat bilan o‘qib chiqishingiz zarur.

Yaponiya Hukumati (Monbukagakusho: MEXT) Yaponiya universitetlarida bir yil davomida yapon tili, mamlakat geografiyasi, yapon madaniyati sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish uchun “Yapon tili va Yaponiya madaniyati” dasturi bo‘yicha o‘quv kursidan o‘tishni xohlovchi nomzodlarning qabul qilinishi to‘g‘risida e’lon qiladi.

TARTIB VA SARALASH MEZONLARI

(qo‘llanmaning 1 bandini qo‘ring)

Nomzodning tug‘ilgan sanasi 1996 yil 2 apreldan 2008 yil 1 aprelgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelishi kerak. Nomzod Yaponiyaga kelish paytida ham, o‘z Vataniga qaytib ketish paytida ham oliy o‘quv yurtining talabasi bo‘lishi kerak. Bu bitiruv kurslari talabalari tanlovda ishtirok qilishlariga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi (1-kurs talabalari mazkur dasturda qatnasha olmaydilar).

Nomzod saralash birinchi bosqichida Yaponiya elchixonasiga taqdim etilgan hujjatlari, yozma imtihon va suhbatlashish yakunlari bo‘yicha tanlov asosida saralash o‘tkazadi. Saralashning birinchi bosqichidan o‘tgan nomzodlar Yaponiya ta’lim vazirligiga (MONBUKAGAKUSHO: MEXT) tavsiya etiladi. MEXT tanlovning ikkinchi (yakuniy) bosqichini olib boradi, natijada tavsiya etilgan nomzodlar orasidan ushbu dastur bo‘yicha o‘quv kursidan o‘tish uchun stipendiya beriladigan ishtirokchilar aniqlanadi.

NOMZODLAR SARALASH REJASI

23 dekabr 2025	dasturning e’lon qilinishi
30 yanvar 2026	hujjatlarni qabul qilish yakunlanishi
10 fevral 2026	anketalar tanlovi natijalarining e’lon qilinishi <u>(nomzodlar o‘zlari telefon qilishadi)</u>
22 fevral 2025	yapon tili bo‘yicha yozma imtihon <u>(sana o‘zgarishi mumkin)</u> <u>(Imtihon o‘tkaziladigan vaqt va joy keyinroq ma’lum qilinadi)</u>
fevral ohirlari 2026	yozma imtihon natijalari ma’lum qilinishi
fevral ohirlari 2026	suhbatdan o‘tish
iyul-avgust 2026	tanlovning yakuniy natijalari ma’lum qilinishi
sentyabr-oktabr 2026	Yaponiyaga yetib kelinishi

HUJJATLAR RO‘YXATI

(ko‘llanmaning 7 bandini, 6-betni qo‘ring)

Nomzod Elchixonaga quyida ko‘rsatilgan hujjatlarning 1-ta to‘plamini **2026 yil 30 yanvar, soat 17:00 gacha** taqdim etishi lozim. Hujjatlar qaytarib berilmaydi. Hujjatlar asl nusxada bo‘lishi lozim. **Dokumentlarni stepler bilan QISTIRISH MUMKIN EMAS.**

No	Hujjatlar	1 asl nusxa	1 ko‘chirilgan nusxa	Izohlar
1	So‘rovnoma-ariza (Application form)	1	/	2026 y. belgilangan namunadagi blank. So‘rovnoma oxirida imzo qo‘yilishi kerak. (*1)
2	Institutlarni tanlash (Placement Preference Form)	1	/	2026 y. belgilangan namunadagi blank. Saralash birinchi bosqichida suhbatga muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar taqdim etishadi. (*6)
3	Oliy o‘quv yurtining sinov (zachyot) qaydnomasi (vedomosti)dan tasdiqlangan baholar qo‘yilgan	1	/	Har bir o‘quv yilning baholari ingliz yoki yapon tiliga tarjima qilinib, o‘qish joyidan tasdiqlanishi kerak. (*yapon tili va yapon madaniyatiga

	ko'chirma yoki baholar qo'yilgan qistirma ilova.			aloqador fanlarni yulduzcha bilan ajratib ko'rsatish kerak)
4	Oliy o'quv yurtida kamida bir yil yapon tilini urganganligini tasdiqlovchi hujjat	1		faqat №3 hujjatni topshira ololmaganlar uchun
5	Ariza beruvchi oliy o'quv yurtining talabasi ekanligini tasdiqlovchi hujjat	1		Oliy o'quv yurti muhri bilan tasdiqlangan, ingliz yoki yapon tilida topshirilishi kerak
6	Oliy o'quv yurtining o'qituvchisi / ilmiy rahbari yoki dekani nomidan tavsiyanoma	1		Ixtiyoriy shaklida (Namunasi bor).
7	Tibbiy guvohnoma	1		2026 y. belgilangan namunadagi blank, ingliz tilida to'ldirilib, doctor imzosi va shifoxonaning (poliklinika) muhri bo'lishi shart. Har qanday shifoxona (poliklinika) yoki xususiy tibbiyot markaziga murojaat qilishingiz mumkin. (*8)
8	Yapon tili bo'yicha malakani tasdiqlovchi hujjat		1	Agar mavjud bo'lsa, yapon tili bo'yicha malakani tasdiqlovchi hujjatning nusxasi ilova qilinsin. (*9)

*** Quyidagi ko'rsatmalarga e'tiboringizni qaratamiz:**

1. Barcha hujjatlar qat'iy ingliz yoki yapon tillarida to'ldirilgan va tuzilgan bo'lishi lozim.
2. To'g'ri to'ldirilmagan, yoki hujjatlar to'liq topshirilmagan taqdirda, Yaponiya elchixonasi nomzodni saralashning keyingi bosqichiga o'tkazmaslik huquqini saqlab qoladi.
3. So'rovnomaning 1 bandida ingliz tilidagi ismi-sharifingiz pasport bo'yicha yozilishi lozim (ota ismini yozilmaslik kerak). 18 bandida O'zbekiston tizimi bo'liyicha olingan ta'lim ma'lumotida «Primary Education» degan joyida 1chi sinfdan 4chi sinfgacha 4 yil ko'rsatiladi; «Lower Secondary Education» - 5chi sinfdan 9chi sinfgacha 5 yil; «Upper Secondary Education» - kollej va litseydagi 3 yil; «Tertiary(Higher) Education (Undergraduate)» - OO'Yu dagi bakalavr o'quv yillari; (ta'til oylari qo'shilgan holda to'liq yil inobadga olinsin).
4. Talab etilgan barcha hujjatlarning yuqori o'ng burchagiga 1 dan 8 gacha raqamlab chiqish lozim.
5. Hujjatlarni stepler bilan biriktirish kerak. To'ldirilgan ariza shakliga belgilangan o'lchamdagi fotosuratni joylashtirishingiz kerak.
6. Nomzod ta'lim olishni istagan universitetni (PLACEMENT PREFERENCE APPLICATION FORM FORM shakli) MEXT veb-saytida joylashgan "Course Guide for Japanese Studies Students" katalogdan ko'rsatiladi.
7. Ushbu dastur uqishni tugatgandan so'ng O'zbekistonga qaytishni nazarda tutadi. Ta'lim muassasasining ilmiy rahbari yoki rahbariyati bilan keyingi ta'lim rejangizni muhokama qilishingiz shart. MEXT qoidalariga rioya qilmagan taqdirda, nomzod Yaponiyada o'qish boshlanganidan keyin unga berilgan stipendiyaning to'liq miqdorini to'lashi kerak bo'ladi.
8. Tibbiy guvohnomani taqdim etilgandan so'ng sog'lig'ida o'zgarishlar yuz bergan taqdirda, bu haqda darhol Yaponiya elchixonasiga xabar berishingiz shart.
9. Agar siz yapon tilini darajangizni tasdiqlovchi sertifikat taqdim etsangiz, to'plagan ballaringiz bilan ko'chirmani ham taqdim etishingiz kerak. Sertifikat nusxasi taqdim etilishi kerak, asl nusxasi qaytarilmaydi.
10. MEXT nomzodning yapon tilini bilish darajasi va yozma imtihon natijalari asosida qaysi universitetga qabul qilinishini hal qiladi. Universitetni tanlash bo'yicha e'tirozlar qabul qilinmaydi. Agar nomzod 2026-yil, 14-avgustgacha e'lon qilingan universitetlardan biriga qabul qilinmasa, uning nomzodi rad etiladi.

So'rovnoma-arizani va barcha ilova quyidagi veb-saytida yuklab olishingiz mumkin:

https://www.mext.go.jp/a_menu/koutou/ryugaku/1423055_00023.htm

Tibbiy guvohnoma

https://www.mext.go.jp/content/20251222-mxt-kotokoku01-000046488_21.pdf

O'quv dasturlari, so'rovnomalarni to'ldirish va dastur bilan bog'liq savollar tug'ilganda Elchixonaga qat'iy soat 09:00 dan 13:00 gacha hamda 14:00 dan 17:30 gacha, Madaniyat va axborot bo'limiga 78-120 80 76/60/61/62 telefoniga murojaat qilishingiz mumkin.